

**XALQ TA'LIMI TIZIMIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA
YO'NALTIRISH ISHLARI: MUAMMO VA ULARNING
YECHIMLARI**

O.M.Yuldasheva

*Toshkent viloyati Oqqa'rg'on tumani
XTB tasarrufidagi 37-umumiy o'rta ta'lif maktabi
Amaliyotchi psixolog*

Annotatsiya: Maqlolada umumta'lif maktablarida kasbga yo'naltirish bo'yicha ishlarni tashkil etish, kasbga yo'naltirishning nazariy asoslari, asosiy tamoyillari va mavjud muammolarga yechimlar berilgan.

Kalit so'zlar: Kasb-hunar, integratsiya, texnologiya, tamoyil, malaka, ta'lif, mutaxassis

Asosiy qism

Kasb-hunarga yo'naltirish – umuminsoniy madaniyatni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismlaridan biri sifatida yosh avlodning kasbiy tiklanishi, tabiat in'om etgan (tug'ma) qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish, insonga kasbiy o'zligini anglashiga yordam beruvchi maxsus chora-tadbirlar majmuasi bo'lib, uning imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, bandlik va maqbul ta'lif turini tanlash ishlarida, turli xil malakali kasb mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlarda jamiyatning g'amxo'rliqi sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida keskin o'zgarishlar kuzatilmoqda. Shunga hamnafas tarzda ta'lif tizimini ham bosqichma-bosqich isloq qilib borish zamon talabi doirasida jadallahib bormoqda. Keyingi yillarda mamalakatda ta'lif-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilar, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, ta'lif tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'lifning uzviyligi va uzuksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 yildagi PF-6108 sonli farmoni o'z vaqtida chiqarilgan va o'ta muhim hujjatdir. Ushbu farmonda Xalq ta'lifi vazirligiga topshiriq sifatida o'quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash va ularga o'z bilim va ko'nikmalaridan amaliyotda foydalanishni o'rgatuvchi malaka talablarini sinflar kesimida ishlab chiqish, 2021-2022 o'quv yilidan boshlab umumta'lif muassasalari bitiruvchilar o'z iqtidori va qiziqishlariga mos kasbni tanlab olishi, mehnat bozorida munosib o'rinni topishi, kasbiy faoliyatida muvafaqqiyatga erishishi uchun "Kasbga yo'naltirish tizimini joriy etish, 7-sinfdan boshlab o'quvchilar o'rtasida

interaktiv so'rovnomalar o'tkazish, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishini aniqlash va ularning ma'lumotlar bazasini yaratish, 7-sinf o'quvchilari uchun har oyda bir marta "kasblar olamiga sayohat" mavzusida kurslar olib borish, 8-sinf o'quvchilari uchun har chorakda kamida bir marotaba "Mening kelajakdagi kasbim" mavzusida seminar-treninglar olib borish hamda, o'quvchilarni kelajakda egallamoqchi bo'lgan kasblarga yo'naltirish, 9-sinf o'quvchilarining kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan pedagogik-psixologik tashxislar natijalari asosida kelgusida aniq ishchi kasblar bo'yicha kasb-hunar maktablarida ta'lim olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar o'rtaida kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish ko'zda tutilgan.

Kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv-bu o'quvchi-yoshlar tomonidan o'zlashtirilagan nazariy va amaliy ko'nikma hamda malakaga aylantirish, ularga faol kasbiy yo'naltirishni tashkil etish tajribasni yuzaga keltirish hamda kasbiy qobiliyat va layoqatlari asosida kasbiy qarorlar qabul qilishni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida amaliyotchi psixolog va kasb-hunarga yo'naltiruvchilar uchun kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish majmuyi bo'lib xizmat qiladi.

Kasb-hunarga yo'naltirishda quyidagi tamoyillar asos qilib olingan:

- kasb-hunarga yo'naltirish xizmatlarining majmuaviy xarakterdaligi;
- iqtisodiy rivojlanish va mehnat bozorini o'rganish va prognoz qilish orqali jamiyat va shaxs qiziqishlarini muvofiqlashtirish;
- shaxsni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis qilish shakli, uslublari va vositalarining ilmiy asoslanganligi;
- O'zbekiston fuqarolarining va (lozim bo'lganda) boshqa davlat fuqarolarining o'qish, ish joyi, yoshi, jinsi, millati va diniy dunyoqarashidan qat'iy nazar kasb-hunarga yo'naltirish xizmatlaridan foydalanishga teng huquqligi;
- kasb tanlash yoki almashtirish, ta'lim turi va ishga joylashish imkoniyatlariga nisbatan kasbiy va boshqa axborotlarning tushunarligi;
- umumiyl o'rta ta'lim mabkab o'quvchilariga psixologik-pedagogik va kasb-hunarga yo'naltirish xizmatlarini ko'rsatishning majburiyligi va bepulligi, aholining boshqa guruhlariga davlat darajasida kafolatlangan kasbiy tashxis va maslahat berishning ixtiyoriyligi;
- kasbiy tanlov, tashxis va maslahat xulosalarining ob'yektivligi, maxfiyligi va tavsiyaviy xarakterda ekanligi;
- kasb-hunarga yo'naltirish xizmatlari xodimlarining kasbiy axloq normalariga rioya etishligi.

Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. Sayidahmedov N.S., Indiaminov N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: “Fan va texnologiya” 2014.
2. Xolmatov P.Q., Parmonov R. Darsdan tashqari mashg`ulotlarda, mehnat ta`limi hamda kasbga yo`naltirish ishlarini takomillashtirishdagi muammolar va yechimlar. Maktab va hayot ilmiy jurnali. 2010-y. 4-son
3. [http://www.hozir.org/oquvchilarni-kasbga-yonaltirish-nazariyasi-va-metodikasi.](http://www.hozir.org/oquvchilarni-kasbga-yonaltirish-nazariyasi-va-metodikasi)